



## 5-SINF "ONA TILI" DARSLIGIDA BERILGAN MATNLAR TAHLILI

---

*Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rog'on filiali  
Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti  
Filologiya tillarni o'qitish o'zbek tili yo'nalishi talabasi  
Ko'charova Ergashoy Bahrom qizi  
E-mail [kocharoyovaturunoy@gmail.com](mailto:kocharoyovaturunoy@gmail.com)*

**Annotasiya.** Ushbu maqolada 5-sinf "Ona tili" berilgan matnlar tahlili haqida ma'lumot berildi. Tahlil davomida matnning mazmun va grammatik jihatlariga to'xtalib o'tildi. Darslikda berilgan matnlar bo'yicha o'quvchilar uchun ishlab chiqilgan topshiriqlar ko'rsatiladi.

**Kalit so'zlar.** Audio matn, tinglab tushunish, o'qib tushunish, savol va topshiriqlar, nutq so'zlash ko'nikmasi, yozma nutq grammatik topshiriqlar. 5-sinf "Ona tili" darsligida Fonetik, Grafika Talaffuz va imlo me'yorlari, Lekiskologiya, Lug'atshunoslik, Punktuatsiya, Ish qog'ozlari.

Hozirgi kunda amaldagi 5-sinf "Ona tili" darsligi 2022-yildan buyon maktab o'quvchilariga o'tilib kelinmoqda.

Darslik N.Mahmudov, A.Sobirov, Shu.Sattorov, Shu.Toshmirzayeva, D.Mannapovalar tomonidan tuzilgan.

O'quv yil oxirida takrorlash mavzulari doirasida matnlar va o'quv topshiriqlari berilgan bo'lib, darslik darslik tubdan o'zgartirilgan va takomillashtirilgan. Ushbu mavzular doirasida bir nechta kichik matnlar va matn mazmuniga mos rangli rasmlar berilgan va o'quvchini ijtimoiy hayotga moslashuvchanligini oshirish, mantiqiy tafakkurni o'stirish ona tili orqali shaxsiy xususiyatlarini, o'zidagi iqtidorni anglash nazarda tutilgan. Shuning uchun ham bu avlod darsligida grammatik mavzular ancha kamaytirilgan. Til va nutqni farqlash; esse, maqola ma'ruza yozish bo'yicha kunikmani shakillantirish; matn sarlavhasi va undagi so'zlarning izohini o'rganish; mustaqil so'z turkumlari hamda tinish belgilarining qo'llanishi ha oid mavzular bo'yicha o'quv topshiriqlarga to'xtalib o'tamiz. Ushbu mavzu doirasidagi matn va topshiriqlar 4 sobbatga mo'ljallangan. Unda o'qib tushunishga doir matnlar 5 tasini tashkil qiladi. Ushbu matnlarning 4tasi kichik hajmdagi matnlar bo'lib, ularni o'qigan o'quvchida tushuncha hosil bo'lishi mumkin. Darslikda "Internetga oid terminlar" nomli matn berilgan bu matn boshqa matnlarga nisbatdan hajmi jihatidan katta bu matnni o'quvchilarga tushuntirishda o'qituvchidan katta



malaka talab qilinadi. Negaki biz kundalik hayotimizda enternetdan ko'p foydalanamiz bolalarni telefon va enternetdan to'g'ri foydalanish kerak ekanligi haqida shu matn orqali tushuntirib ketish kerak .Negaki mavzuni tushuntirishda matnni qismlarga bo'lib o'rgatish foyda beradi deb o'ylaymiz.

Matn mazmuniga to'xtaladigan bo'lsak ushbu matn o'quvchilarga internet terminlari haqida ma'lumot beradi . Matnni o'rgatishda matni yuzasidan kichik testlar tuzish o'quvchilarning e'tiborini tortish va darsga qiziqtirishga yordam beradi. Berilgan matn yuzasidan audio matn ishlab chiqish esa yanada samarali usul deb hisoblaymiz o'quvchilar audio matnni eshitib test yechsa o'quvchilarda tinglab tushunish ko'nikmasi shakllanadi.

Masalan :Test uchun namuna

1. Akkaunt nima

- A. komputerda ma'lumot saqlovchi desk
- B. foydalanuvchi taqdimoti sifatda tanlangan rasm
- C. ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchining nomi

2. Bloger

- A. ma'lum bir mavzu bo'yicha eng qiziqarli nashrni yetkazadigan maqola
- Bu. o'z qarashlarini internetdagi ma'lum bir platformda doimiy ravishda e'lon qiladigan shaxs

3. fayl

- A. kompyuterda ma'lumot saqlovchi diskning nomlangan sohasi
- B. Ijtimoiy tarmoqdagi mavzu bo'yicha xabarlarni tarqatishda foydalaniladigan yorliq

4. Mem

- A. foydalanuvchi taqdimoti sifatida tanlangan rasm
- B. mashhur bo'lib bahsga aylangan g'oya yoki rasm

5. vebinar

- A. to'g'ridan to'g'ri mashg'ulot
- Bu. mashhur bo'lib bahsga aylangan rasm yoki g'oya.

Berilgan namunaviy testlar orqali biz o'quvchini darsga qiziqtirish va diqqatini jalb qilishga erishamiz deb hisoblaymiz .5sinf "Ona tili "darsligini o'qitishda o'qituvchilardan malaka va

mahorat talab qilinadi .Negaki ,ushbu darslik takomillashtirilgan darslik hisoblanib, darslik o'quvchini fikrlashga nutqni to'g'ri va ravon so'zlashga ko'maklashadi



Xulosa qilib aytganda darslikda berilgan matnlar ham mazmunan ham dramatik jihatdan o'quvchilarning bilimlarini oshiradi .Turli mavzulardagi matnlar ularning dunyo qarashini o'stiradi.

Ammo darslik yuzasidan bir necha xato va kamchililar ham kuzatilmoqda . Darslikda berilgan "Lug'atshunoslik"bo'limida ayrim so'zlarning ma'nolarini topishda o'quvchilar qiynaladi va u so'zlarni ma'nosini tushunishga yosh jihatdan mos ham emas .Keyin esa maktablarda o'quvchilarning yoshidan kelib chiqqan holda tuzilgan lug'at kitoblar ham yo'q .Shuning uchun qiyin bo'lgan so'zlardan darsliklarda foydalanmaslik kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ona tili o'qish savodxonligi 2mashq daftari 2-sinf uchun mashq daftari /I.Azimova ,K.Mavlonova,Sh.Tursunov, Toshkent.Respublika ta'lim markazi.80-bet
2. Umumi o'rta ta'lim maktabining 5-sinfi uchun darslik.N.Mahmudov ,A.Sobirov ,Sh.Sattorov,Sh.Toshmirzayeva ,D. Mannapova